



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 25 yil “ 04 ” iyul _____

№ 197 _____

Toshkent sh.

Markaziy laboratoriyalar faoliyatini tashkil etish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 19-maydagi PF–88-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, aholiga ko‘rsatilayotgan laboratoriya xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirish, shuningdek, loyihani keng joriy etish uchun zarur bo‘lgan samarali boshqaruv, raqamlashtirish, logistika va sifat nazorati tizimini shakllantirish maqsadida, **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Markaziy laboratoriya bo‘limining funksional **xonalarini joylashtirishning** namunaviy loyihasi 1-ilovaga;

Markaziy laboratoriyani namunaviy **minimal jihozlash** tabeli 2-ilovaga;

Markaziy laboratoriya **faoliyatini tashkil etish** tartibi 3-ilovaga;

Anesteziologiya, reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlarida bajariladigan laboratoriya **tahlillari ro‘yxati** 4-ilovaga;

Markaziy laboratoriyada biologik namunalarni tahlilini **rad etish mezonlari** 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazir o‘rinbosari (F. Toshpo‘latov), **Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti** (U. Gazieva), **Tibbiy jihoz, transport hamda insonparvarlik yordamlarini muvofiqlashtirish va hisobini yuritish bo‘limi** (O. Meliboev):

2025-yil 10-iyulga qadar tajriba-sinov hududlaridagi aholi soni, kasallanish ko‘rsatkichlari, mavjud laboratoriyalarning quvvati va jihozlanishini inobatga olgan holda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari hamda tashxislash va davolash standartlari hamda klinik protokollar asosida tuman (shahar) sog‘liqni saqlash bo‘limi tasarrufidagi tibbiyot

muassasalaridagi mavjud laboratoriya asbob-uskunolari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan markaziy laboratoriyalarni jihozlash tabeliga muvofiq ta'minlash;

2025-yil yakuniga qadar tajriba-sinov hududlaridagi markaziy laboratoriyalarni zarur laborator asbob-uskunolari va sarflov vositalari bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari:

uch kun muddatda o'z hududlarida mavjud laborator jihozlar, ularning holati va sarflov vositalarining zaxirasini xatlovdan o'tkazsin;

ehtiyojdan kelib chiqib tajriba-sinov hududidagi markaziy laboratoriyalarga zarur laborator asbob-uskunalar va sarflov vositalarini jamlash choralari ko'rsin. Bunda, zarur hollarda tajriba-sinov loyihasi doirasida bo'lmagan hududlardagi ishlatilmayotgan jihozlardan ham foydalanishga ruxsat etiladi;

biomaterial namunalarini oilaviy poliklinikalardagi namuna yig'ish punktlaridan markaziy laboratoriyaga yetkazib berish yo'nalishlari va qatnov jadvallari ishlab chiqsin, tibbiyot muassasalari bilan kelishsin va tasdiqlasin. Bunda avtotransport vositalarining qatnov yo'nalishlari va jadvallari hududning bir yo'nalishdagi qismida eng uzoqda joylashgan oilaviy poliklinikalardan boshlab eng yaqiniga qarab yig'ib kelish tamoyili asosida tuzilishi inobatga olinsin;

tuman (shahar) markaziy shifoxonalarining reanimatsiya bo'limlarida ushbu buyruqning 4-ilovasidagi ro'yxatga muvofiq laborator tahlillar bajarilishini yo'lga qo'yish choralari ko'rsin.

4. Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 20-maydagi "Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning yangi tizimini tajriba-sinov hududlarida joriy etishni tashkil etish to'g'risida"gi 142-son buyrug'i bilan tajriba-sinov hududlariga biriktirilgan respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari rahbarlari markaziy laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yishga mas'ul etib belgilansin.

Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari rahbarlari tajriba-sinov hududlariga markaziy laboratoriyalar faoliyatini tashkil etish uchun markazda ehtiyojdan ortiqcha va samarasiz foydalanilayotgan laboratoriya asbob-uskunolari hamda sarflov vositalarini vaqtinchalik yetkazib berish choralari ko'rsin.

5. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi (B. Yusupaliyev):

uch oy muddatda markaziy laboratoriyalar bino-inshootlari va faoliyatiga tegishli Sanitariya qoida va normalarini ishlab chiqsin. Bunda xalqaro tajriba va zamonaviy laboratoriya jihozlariga bo'lgan talablar hisobga olinishini ta'minlasin;

tashkil etilayotgan markaziy laboratoriyalarni shifoxona binolariga moslashtirish bo'yicha tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limlariga ko'maklashsin. Qo'mitaning hududiy boshqarmalari boshliqlari va malakali mutaxassislaridan iborat guruh doimiy ravishda nazorat va amaliy yordam berishi, shu jumladan, yangi ishlab chiqilgan markaziy laboratoriyalar bino-inshootlari va faoliyatiga tegishli Sanitariya qoida va normalariga moslashtirishga ko'maklashishi tashkil etilsin;

tajriba-sinov hududlaridagi markaziy laboratoriyalarda o'tkaziladigan nazorat tadbirlarida ularga tibbiyot muassasalarining markazlashmagan laboratoriyalariga qo'yilgan talablar tatbiq etilmasligini ta'minlasin;

tajriba-sinov hududlaridagi markaziy laboratoriyalarni zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan jihozlash jarayonida laboratoriyalar joylashtiriladigan bino xonalarining sonidan kelib chiqib, ular o'lchamini qisqartirish yuzasidan individual yondashilsin.

6. Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi (L. Musadjanova) Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari bilan birgalikda tajriba-sinov loyihasi hududidagi oilaviy poliklinikalarning namuna yig'ish punkti laborant xodimlarining biomateriallarni yig'ish, jumladan qon olish bo'yicha malakalarini oshirish choralarini ko'rsin.

7. Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi (Sh. Nurimova) laboratoriya tadqiqotlarini tayinlash bo'yicha xalqaro protokollarni ishlab chiqsin yoki moslashtirsin.


8. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov

Markaziy laboratoriya bo'limining funksional xonalarini joylashtirishning namunaviy loyihasi



Markaziy laboratoriyaning xonalari nomi va maydoni hisobi (m²)

№	Xona nomi	Maydoni (m²)
1	Yo'lak (kutish zali ham qo'shilishi mumkin)	8-16
2	Dezinfeksiya va utilizatsiya xonasi	4-10
3	Bo'lim mudiri xonasi	10-12
4	Xodimlar xonasi	8-12
5	Xodimlar uchun kiyim almashtirish xonasi	10
6	Tozalik vositalarini saqlash uchun xona	4-6
7	Xojatxona	4
8	Tanbur	3
9	Namunalarni qabul qilish va saralash	10-20
10	Namunalarni saqlash xonasi	8-10
11	Koridor	2-4
12	Siydik/najis/balg'am va me'da shirasi tekshirish	12-18
13	Reaktivlar va materiallar saqlash xonasi	4-6
14	Qon biokimyosi, qon morfologiyasi va namunalarni bo'yash xonasi	12-36
15	IFA va Serologik/immunologik tekshiruvlar tekshiruvlari xonasi	12-16
16	Chiqish yo'lagi	1-2

Izohlar:

- 1.** Ushbu namunaviy loyiha Klinik-bioximik, Serologik, Morfologik va PZR laboratoriya majmuasidan iborat bo'lgan Markaziy laboratoriyaning (keyingi o'rinlarda – ML) tasviriy chizmasi.
- 2.** ML namunaviy loyihasi chizmasi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, mavjud bino-inshootlar shaklidan kelib chiqib, markaziy laboratoriya binosi shakli va xonalar joylashuvi ketma-ketligi o'zgarishi mumkin. Bunda MLni joylashtirishda tibbiyot muassasalaridan namunalarni olib keluvchi transport vositalari va kuryerlar uchun namunalarni topshirish qulayligi inobatga olinadi.
- 3.** Namunalarni kuryerlardan qabul qilish maxsus ajratilgan darcha orqali amalga oshiriladi. Bunda ML joylashgan bino-inshootlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda turli maqsadlar uchun bir nechta namuna qabul qilish darchalari tashkil etilishi mumkin.
- 4.** Namunalarni qabul qilish darchasi bevosita namunalarni qabul qilish va saralash xonasiga ochilishi maqsadga muvofiq.
- 5.** Gematologik va biokimyoviy laboratoriyalarni zaruratga ko'ra umumiy yoki alohida xona(lar)ga joylashtirish mumkin.
- 6.** MLda ishlatilayotgan analizatorlarning zamonaviyligi, quvvati va hajmini hisobga olgan holda hamda sanitariya normalariga ko'ra xonalar soni va (yoki) hajmini kichraytirishga ruxsat beriladi.
- 7.** Siydik/najas/balg'am tekshirish xonasida potensial biologik xavfi yuqori bo'lgan namunalar bilan ishlanganligi tufayli bu turdagi tahlillar uchun maxsus shamollatish (HEPA-filtrli ventilyatsiya) tizimi va bioxavfsizlik darajasiga mos yuvinish joylari (rakovina) bo'lishi shart.
- 8.** MLda ventilyatsiya tizimi bino ichida ifloslangan havo bilan toza havo almashinuvini ta'minlovchi tarzda tashkil etiladi. PZR va balg'am ishlovchi xonalar uchun alohida HEPA-filtrli majburiy shamollatish talab etiladi. Havo kirish kanallari shift yoki yuqori devorlarga, chiqish kanallari esa pastki devor yoki pol darajasiga yaqin joylashtiriladi. Har bir funksional zonada havo oqimi toza hududdan iflos zonaga qarab bo'lishi zarur.
- 9.** Zamonaviy laborator analizatorlar uchun avtomatik o'z-o'zini yuvish imkoniyatiga ega suv liniyalari yotqizilishi lozim. Tizim sanitariya nazoratiga javob beradigan, kimyoviy moddalarga chidamli materiallardan yasalgan bo'lishi kerak. Suv liniyalari har bir analizator joylashgan maydonga yondosh ravishda o'tkaziladi, va texnik xizmat ko'rsatish xonasiga ulanadi.
- 10.** Laboratoriya anjomlarini yuvishga mo'ljallangan ikki seksiyali rakovinalar kimyoviy moddalarga chidamli bo'lib, sovuq va issiq suv ta'minotiga ega bo'lishi kerak. Ular bioximik, IFA, va morfologik laboratoriyalarda bevosita chiqindi hosil bo'ladigan ish zonalariga yaqin joylashtiriladi. Har bir 12–18 m² xona uchun kamida 1 rakovina talab etiladi.

11. IFA, biokimyo va PZR laboratoriyalarida haroratni barqaror saqlash uchun alohida konditsioner yoki markaziy iqlim nazorati tizimi (HVAC) talab etiladi. Konditsionerlar ish joyidan balandroq joyda, havo aylanishini ta'minlaydigan tarzda joylashtiriladi. Serverlar yoki ko'p issiqlik chiqaradigan tibbiy uskunalar joylashgan xonalarda ortiqcha issiqlikni chiqarib yuborish uchun maxsus shamollatish (egzoz) tizimi o'rnatilishi lozim.

12. ML boshqa bo'limlardan o'zining qulflanadigan kirish va chiqish eshigi bilan ajralib turishi va ML hududiga uning xodimlaridan boshqa shaxslarning kirish imkoniyati bo'lmasligi kerak. Bunda, ML eshigiga shifrli yoki shunga o'xshash qulflar qo'yish maqsadga muvofiq.

13. Qon olish, balg'amni yig'ish, sperma yig'ish va boshqa turdagi tahlillarga namuna yig'ish xonalari MLda pulli xizmatni yo'lga qo'yish maqsadida tashkil etiladi.

14. Pulli asosda ko'rsatiladigan laboratoriya xizmatlari uchun yoki boshqa sabablarga ko'ra MLda namunalarni olish uchun xonalar tashkil etilganda, ushbu xonalarga kirish eshiklari binoning tashqi qismiga ochilib, alohida bo'lishi zarur. Namuna topshirish uchun tashrif buyurgan aholi ML hududining boshqa qismiga kirishi ta'qiqlanadi.

Markaziy laboratoriyani namunaviy minimal jihozlash tabeli

T/r	Jihoz nomi	O'lchov birligi	Soni
I. Markaziy laboratoriyaning asosiy jihozlari			
1.	Avtomat avtouzatuvli gematologik analizator (≥ 100 tahlil/soat – Har 100 ming aholi uchun)	dona	2
2.	Avtomat biokimyoviy analizator (≥ 1000 tahlil/soat– Har 100 ming aholi uchun)	dona	2
3.	Avtomat immunoxemilyuminissent analizator (Har 100 ming aholi uchun*)	dona	1
4.	Avtomat koagulometr (≥ 100 tahlil/soat– Har 100 ming aholi uchun)	dona	2
5.	Mutloq avtomatlashgan kompleks peshob analizatori (peshobning fizik va kimyoviy xossalari xamda peshobning cho'kmasi mikroskopiyasi, har 100 ming aholi uchun*)	dona	2
6.	Sentrifuga	dona	4
7.	Binokulyar mikroskop	dona	4
II. Markaziy laboratoriyaning yordamchi jihozlari			
8.	Reaktivlarni saqlash uchun Sovutkich (+2...+8°C) (Har bir xonaga)	dona	1
9.	Reagentlar uchun muzatgich (-20°C) (Har bir xonaga)	dona	1
10.	Biomateriallarni arxivlash uchun muzlatgich	dona	1
11.	Sovutuvchi agentlar uchun muzlatgich (-20°C)	dona	1
12.	Deionlashgan suv tozalash sistemasi (20 l/soat)	dona	1
13.	Avtomat elektron dozator Diapazoni: 5-50 mk, 50-200 mkl, 200-1000 mkl (Har biridan)	to'plam	5
14.	ONLINE UPS (Har bir analizator quvvatiga ko'ra har bir analizatorga)	dona	1
15.	Quritish shkafi (termostat)	dona	1
16.	Laborator mebel to'plami (yozuv stoli, stul, laborator stol, taburetk, xujjatlar uchun shkaf, kiyim uchun shkaf)	to'plam	Ehtiyojga ko'ra
17.	Bakteritsid yoritgich (Har bir xonaga)	dona	1
III. Markaziy laboratoriyaning qo'shimcha jihozlari			
18.	Uzluksiz quvvat manbai	dona	2
19.	Shtrix-kod uchun printer	dona	1

20.	Shtrix-kod uchun skaner	dona	1
21.	Kompyuter (Har bir shifokor va o'rta tibbiyot xodimi uchun)	dona	1
22.	printer	dona	3
23.	Konditsioner (Har bir xonaga)	dona	1
24.	Termosumkalar	dona	Ehtiyojga ko'ra
25.	Shtativlar	To'plam	Ehtiyojga ko'ra

Biomateriallarni qabul qilish (muolaja) xonasining jihozlanish normativi

T/r	Jihoz nomi	O'lchov birligi	Soni
1.	Qon olish kreslosi (Har 50 qatnov uchun)	dona	1
2.	Sentrifuga	dona	2
3.	Biomateriallar uchun sovutgich	dona	2
4.	Sovutuvchi agentlar uchun muzlatgich (-20°C)	dona	1
5.	Shtrix-kod uchun printer (Har bir xonaga)	dona	1
6.	Shtrix-kod uchun skaner (Har bir xonaga)	dona	1
7.	Bakteritsid yoritgich (Har bir xonaga)	dona	1
8.	Kompyuter (Har bir xonaga)	dona	1
9.	Printer	dona	1

**) Aholi soni belgilangan ko'rsatkichdan bir necha barobar ortganda jihozlar soni o'rniga ularning quvvatini oshirish maqsadga muvofiq.*

Markaziy laboratoriya faoliyatini tashkil etish TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib tajriba-sinov loyihasi doirasidagi hududlarda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan oilaviy poliklinikalarga hamda tuman (shahar) markaziy shifoxonasi bo'limlariga xizmat ko'rsatuvchi markaziy laboratoriyalarni (keyingi o'rinlarda – markaziy laboratoriya) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Markaziy laboratoriya tuman (shahar) markaziy shifoxonasining bo'limi hisoblanadi.

3. Markaziy laboratoriyani moliyalashtirish bajarilgan laboratoriya xizmatlari hajmi asosida Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

4. Markaziy laboratoriya joylashgan binolarni qo'riqlash, kommunal xarajatlar, shu jumladan elektr energiyasi, issiqlik va suv ta'minoti hamda boshqa xarajatlarni moliyalashtirish markaziy laboratoriyalar joylashgan tuman (shahar) markaziy shifoxonasi bilan birga tegishli tuman (shahar) sog'liq saqlash bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Markaziy laboratoriyada o'tkaziladigan tahlil turlari, ish yuklamasi hamda sanitariya-epidemiologik, dezinfeksion talablarni bajarish uchun sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (keyingi o'rinlarda – SanQvaN)ga muvofiq yetarlicha xonalar ajratiladi va zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

6. Markaziy laboratoriya o'z faoliyatini qonunchilikda belgilangan amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan olib boradi.

7. Ushbu Tartibda quyidagi tushuncha va iboralar qo'llaniladi:

biomaterial – tibbiy tekshiruv, tahlil yoki ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadida inson tanasidan olingan biologik namuna. Ushbu namuna qon, siydik, najas, balg'am, to'qima parchalari, sperma, turli xil surtmalar va boshqa biologik suyuqlik bo'lishi mumkin.

preanalitik bosqich – laboratoriya tahlilari boshlanishidan oldin bajariladigan va laboratoriya tahlili natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi;

analitik bosqich – laboratoriya tekshiruvining asosiy qismi bo'lib, biomaterialni tahlil qilish, o'lchash va natijalarni olish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda biomaterial tegishli usul va vositalar yordamida tekshiriladi, kerakli parametrlar o'lchanadi va miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi;

postanalitik bosqich – tahlil natijalarini talqin qilish, tasdiqlash, hisobotini tayyorlash, natijalarni davolovchi shifokor yoki bemorga topshirish, davolovchi shifokor tomonidan bemor to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda sharhlash, biomaterialni saqlash (zarurat bo'lganda), utilizatsiya qilishni o'z ichiga oladi;

shtrix-kod – biomaterial namunasini identifikatsiyalash uchun qo'llaniladigan bemorning (aholining) shaxsiy ma'lumotlari, biomaterial va tahlil turi, ularning olingan sanasi hamda vaqti ko'rsatilgan maxsus belgi;

laboratoriya axborot tizimi (keyingi o'rinlarda – LAT) – laboratoriya jarayonlarini elektron avtomatlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va almashish tizimi;

standart operatsion muolajalar (keyingi o'rinlarda – SOM) – laboratoriyadagi faoliyat jarayonlarini to'g'ri ketma-ketlikda bajarish uchun me'yorlar. SOM xodimlar faoliyati hamda jarayonlarni bir xil, samarali va xavfsiz bajarishni belgilaydi, shuningdek, sifat va xavfsizlikni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi;

namunalarni yig'ish punkti (keyingi o'rinlarda – NYP) – aholidan biomaterial namunasini olish uchun ajratilgan oilaviy poliklinikalarning muolaja yoki maxsus tibbiyot xonalari;

kuryer – biomaterial namunalarni tibbiyot muassasalaridan yig'ib markaziy laboratoriyaga yetkazib beruvchi xodim, bir vaqtning o'zida markaziy laboratoriya avtotransporti haydovchisi vazifasini ham bajarishi mumkin.

8. Markaziy laboratoriyada tekshiruvlar oilaviy poliklinikalar va tuman (shahar) markaziy shifoxonasi bo'limlari uchun tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib asosida bepul amalga oshiriladi.

9. Markaziy laboratoriyada boshqa tibbiyot tashkilotlaridan keltirilgan biomateriallar uchun, shuningdek, yo'llanmasi mavjud bo'lmagan aholiga hamda kafolatlangan paket doirasiga kiritilmagan tibbiy xizmatlar uchun shartnoma asosida laborator (klinik, biokimyoviy, immunologik va boshqa) tekshiruvlarni pulli asosda o'tkazilishi mumkin.

10. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan laboratoriya jarayonining barcha bosqichlari (preanalitik, analitik va postanalitik) uchun SOMlar ishlab chiqish talablari tasdiqlanadi.

11. Mazkur Tartib markaziy laboratoriyalarning asosiy jarayonlarini standartlashtirishga xizmat qiladi. Laboratoriyalar ehtiyoji va xususiyatlaridan kelib chiqib ushbu Tartibga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

II. Markaziy laboratoriyaning maqsad va vazifalari

12. Markaziy laboratoriyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy laboratoriya xizmati samaradorligi va sifatini oshirish;

zamonaviy laboratoriya texnologiyalari, usullari va standartlarini joriy etish;

tibbiyot muassasalarining "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimini LAT bilan integratsiya qilish orqali elektron hujjat almashinuvini yo'lga qo'yish.

13. Markaziy laboratoriyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

aholiga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida bepul laboratoriya xizmatlarini ko'rsatish;

laboratoriya jarayonining barcha bosqichlari (preanalitik, analitik va postanalitik) uchun Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan talablar asosida SOMlarni ishlab chiqish va joriy etish;

qon va boshqa biomateriallarni amaldagi normativ-me'yoriy hujjatlarda belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda yig'ish, tashish, saqlash, tahlillarni o'tkazish hamda utilizatsiya qilish;

markaziy laboratoriyada amalga oshirilgan tahlillar natijalari ma'lumotlarini LAT orqali yuborish;

laboratoriyada ichki nazorat namunalarini qo'llagan holda tahlillar sifatini nazorat qilish;

sifat menejmenti tizimini joriy etish va tashqi sifat nazorati dasturlarida qatnashish;

markaziy laboratoriyadagi o'lchov asbob-uskunalarini o'z vaqtida metrologik ko'rikdan o'tkazish;

preanalitik bosqich talablari va biomaterialni qabul qilish qoidalari bo'yicha muolaja xona va laboratoriya xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish;

tibbiyot muassasalaridan biomateriallarni tashish bo'yicha optimal yo'nalishlar va qatnov jadvallarini ishlab chiqish va biomateriallarni o'z vaqtida sifatli va xavfsiz yetkazib berilishini nazorat qilish;

favqulodda vaziyatlar (haroratning keskin o'zgarishi, konteynerning buzilishi, yo'llanma bo'yicha nomutanosibliklar) yuzaga kelganda biomaterial namunalarini yetkazib berishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

III. Markaziy laboratoriyaning huquq va majburiyatlari

14. Markaziy laboratoriya quyidagi huquqlarga ega:

o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik hujjatlari va mazkur Tartib asosida rejalashtirish va amalga oshirish;

xodimlari qonunchilikda belgilangan ish haqi bo'yicha imtiyozlardan va ijtimoiy muhofazadan foydalanishini ta'minlash yuzasidan tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'iga talabnoma kiritish;

belgilangan tartibda davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlariga laboratoriya xizmatlarini shartnomaga muvofiq pulli asosda ko'rsatish;

moddiy texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi nomidan davlat va xorijiy grantlarni olish uchun tanlovlarda ishtirok etish.

15. Markaziy laboratoriyaning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

texnika xavfsizligi, mehnatni himoya qilish, yong'in xavfsizligi qoidalari, SanQvaN va xodimlar salomatligini himoya qilish talablarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

tahlillarning haqqoniyligini, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

laboratoriya mulkini maqsadli ishlatish va uning butunligini ta'minlash;

xodimlar malakasini oshirib borishni ta'minlash;

laboratoriya faoliyati bilan bog'liq hujjatlar va hisobot shakllarini amaldagi buyruqlar asosida yuritish va yuqori turuvchi tashkilotlarga o'rnatilgan tartibda taqdim etish.

IV. Markaziy laboratoriya faoliyatini tashkil etish

16. Markaziy laboratoriyaning ish faoliyatini tashkillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tibbiy jihozlar, sarflov materiallari va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlash tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi hamda tuman (shahar) markaziy shifoxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

17. Markaziy laboratoriyani jihozlash, o'tkazilgan klinik laboratoriya tekshiruvlarining turlarini va ularning miqdorini hisobga olgan holda mazkur buyruqning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

18. Markaziy laboratoriyaning shtat birliklari tasdiqlangan shtat me'yorlariga muvofiq belgilanadi.

19. Markaziy laboratoriya mudiri va xodimlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi rahbari tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

20. Markaziy laboratoriya mudiri etib, oliy tibbiy ma'lumotli, laboratoriya sohasida kamida 5 yil ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassis tayinlanadi.

21. Markaziy laboratoriyaga oliy va o'rta maxsus tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan va tegishli diplomdan keyingi ta'lim muassasalarida tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar ishga qabul qilinadi.

22. Markaziy laboratoriya mudiri, shifokori va o'rta tibbiy xodimining lavozim yo'riqnomalari mazkur Tartibning tegishincha 1, 2, 3-ilovalariga muvofiq tasdiqlanadi.

23. Markaziy laboratoriyaning ish rejasi tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan tasdiqlanadi.

24. Markaziy laboratoriyaning faoliyati tunu-kun xizmat ko'rsatish asosida tashkil etiladi.

V. Tibbiyot muassasalarida biomateriallarni olish, saqlash, qabul qilish va tashish tartibi

25. Aholidan biomaterial namunasini olish NYPda tibbiyot xodimi yoki bemorning o'zi yoki bemorga g'amxo'rlik qilayotgan boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

26. Laboratoriya jarayonining barcha bosqichlarida insonning barcha biologik materiallari potensial infeksiyalangan deb hisoblanishi lozim.

Laboratoriyaga kiruvchi barcha biologik materiallar bilan ishlash me'yoriy hujjatlarga muvofiq laboratoriya xodimlariga ham, atrof-muhitga nisbatan ham biologik xavfsizlikni ta'minlagan holda amalga oshirilishi zarur.

27. Tibbiyot muassasalari tomonidan tahlillarni topshirish tartibi, natijalarni olish hamda kafolatlangan paketga kirmagan xizmatlar (pulli ko'rsatiladigan xizmat) turlari va xizmat haqini to'lash bo'yicha aholini xabardor qilish uchun maxsus burchaklar tashkil etiladi.

28. Barcha biomateriallarni olish amaldagi normativ hujjatlardagi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

29. NYP tibbiyot xodimlarining vazifalari:

bemorning shaxsini aniqlash;

laboratoriya tahlillariga yo'llanmalarni "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida to'ldirish;

bemordan biomaterialni olish va namunalarni to'g'ri shtrix kod bilan markirovkalash;

Shtrix-kod uchun skaner yordamida markirovkaning to'g'riligini tekshirish va namuna olingan vaqtni LATga kiritish;

kuryerga topshirgunga qadar namunalarni talab etiladigan sharoitda/haroratda vaqtincha saqlash;

namunalarni kuryerga topshirish va LATda qayd etish.

30. Biomaterial namunasi shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, haydovchilik guvohnomasi) asosida olinadi.

Bunda namuna olishdan avval laboratoriyaga yo'llanma to'ldiriladi.

Yo'llanmaga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

bemor/shaxsni laborator tekshiruviga yuborgan muassasaning nomi, shifokorning F.I.Sh.;

biomaterialni yuborgan davolovchi shifokor yoki tibbiyot muassasasining telefon raqami (agar mavjud bo'lsa), elektron pochta manzili (agar mavjud bo'lsa);

biomaterialni olgan muassasa nomi;

biomaterialni olgan tibbiyot xodimining F.I.Sh.;

biomaterial turi (qon, zardob, plazma, siydik, najas va h.k.), birlamchi yoki takroriy;

biomaterial olingan joyning ko'rsatilishi va yig'ish usuli (zarurat bo'lganda);

biomaterial olingan sana, oy, yil, vaqt;

bemor/shaxsning F.I.Sh., jinsi, tug'ilgan sana, oy, yili, hujjatining turi, raqami, doimiy va vaqtincha yashash manzili, MedID raqami;

tekshiruvdan o'tish turi (shifokor yo'llanmasi, pullik va h.k.);

laborator tekshiruv turi, ko'rsatkichlari;

bemorning asosiy kasallik tashxisi (agar mavjud bo'lsa), xalqaro kasalliklar tasnifi (XKT)ga muvofiq tashxis kodi;

bemor tomonidan qabul qilingan dori-darmonlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, tadqiqot natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa biologik omillar;

epidemiologik ma'lumotlar (mavjud bo'lsa).

31. Biomaterial olish uchun bir martalik tibbiy (probirka, vakuteyner, konteyner va h.k.) jihozlardan foydalaniladi hamda shtrix-kod bilan markirovkalanadi.

32. NYP xodimi zarur hollarda biomateriallarga birlamchi ishlov beradi va namunalarni turlariga qarab saralab konteynerlarga joylaydi.

33. NYPda biomaterial namunalari turlari bo'yicha ajratilib guruhlanadi hamda sovutgichlarda +2...+8 daraja haroratda saqlanadi.

34. Qon namunasi olingan vaqtdan kuryerga topshirilgunga qadar 45 daqiqadan uzoqroq vaqt o'tgan taqdirda namunalar NYPda sentrifugalanadi.

35. Biomaterial namunalari kuryerga topshirishdan oldin Biomaterial namunalarini kuzatuv varaqasi 4-ildovaga muvofiq NYP va markaziy laboratoriya xodimlari tomonidan "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida tegishli qismlari to'ldiriladi.

36. Namunalar kuryer tomonidan qabul qilishdan avval sanaladi va 5-ildovaga muvofiq "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida Biomaterial namunalarini tashish uchun logistika jurnaliga ma'lumotlar kiritiladi.

37. Markaziy laboratoriya harorat monitoringi tizimi bilan jihozlangan maxsus avtotransport, termosumkalar va shtativlar bilan ta'minlanadi.

38. Biomaterial namunalari logistikasi markaziy laboratoriyalarga ajratilgan avtotransportlar yordamida amalga oshiriladi.

39. Biomaterial namunalarini logistikasini amalga oshirishda kuryerlik xizmati markaziy laboratoriyaning haydovchi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

40. Biomaterial namunalarini NYPlardan markaziy laboratoriyaga yetkazib berish tasdiqlangan yo'nalishlar va tibbiyot muassasalari bilan kelishilgan qatnov jadvallari asosida amalga oshiriladi.

41. Avtotransportlarning qatnov yo'nalishlari va jadvallari hududning bir yo'nalishdagi qismida joylashgan oilaviy poliklinikalarning eng uzoqdagisidan boshlab eng yaqiniga qarab yig'ib kelish tamoyili asosida tuziladi.

42. Har oy yakuni bo'yicha namunalarni tashish uchun yo'lda sarflangan vaqt markaziy laboratoriya mudiri tomonidan tahlil qilinib, qatnov yo'nalishlari va jadvallarini imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

43. Optimallashtirilgan qatnov yo'nalishlari va jadvallari markaziy laboratoriya xizmat ko'rsatadigan oilaviy poliklinika mudirlari bilan kelishilgan holda tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

44. Markaziy laboratoriyaning haydovchi xodimlari uchun lavozimga tayinlash jarayonida hamda keyinchalik har kvartalda markaziy laboratoriya mudiri tomonidan mahorat darslari va malaka oshirish seminarlari tashkillashtirib boriladi.

45. Oilaviy poliklinikalarning NYPlaridan biomaterialni qabul qilish vaqtida kuryer konteyner (o'ram)larning yaxlitligini tekshiradi. NYP xodimi biomateriallarni kuryer qabul qilganligini "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida belgilaydi.

46. Favqulodda vaziyatlarda (haroratning keskin o'zgarishi, konteynerning buzilishi) holatlari yuzaga kelganda kuryer markaziy laboratoriya va yuboruvchi tibbiyot muassasasining mas'ul shaxslarini xabardor qilishi, yetkazib berish bilan bog'liq yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomaga amal qilishi shart.

VI. Markaziy laboratoriyada namunalarni ro'yxatga olish va taqsimlash tartibi

47. Biomaterial namunalari markaziy laboratoriyaning namunalarni qabul qilish darchasi orqali mas'ul xodim tomonidan qabul qilinadi. Kelib tushgan namunalar "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimidagi ma'lumotlar bilan solishtiriladi. Har bir namuna yo'llanma bilan solishtirilib soni, miqdori, sifati vizual baholanadi hamda saralanadi. Nomutanosibliklar aniqlangan taqdirda namuna yaroqsiz deb topiladi va LATda izoh kiritilib, tahlil rad etilganligi belgilanadi.

48. Tahlillarni rad etish ushbu buyruqning 5-ilovasida belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

49. Tahlilni buyurgan shifokor zaruratga ko'ra aholini tahlilga qayta yo'naltiradi.

50. Har oy namunalarni qabul qilish va saralash xonasi xodimi tomonidan rad etilgan tahlillar hisoboti tayyorlanadi va markaziy laboratoriyaning mudiri tomonidan rad etish holatlarining asosiy sabablari tahlil qilinadi.

51. Markaziy laboratoriyaning mudiri tomonidan rad etish holatlarini kamaytirishga qaratilgan choralar ko'riladi, shu jumladan, NYPlarga tashrif buyurilib, xodimlarga biomaterial namunalarini yig'ish, yo'llanmalarni to'g'ri to'ldirish va shu kabilar yuzasidan o'quv seminarlari tashkil etiladi.

52. Namunalarni qabul qilish va saralash xonasida har bir biomaterialning maxsus shtrix-kodi skanerlanadi va LATda avtomatik tarzda namunaning elektron laboratoriya raqami yaratiladi hamda u bemorning elektron yo'llanmasidagi ma'lumotlar bilan bog'lanadi. Laboratoriya tahlillari jarayonining barcha bosqichlarida namuna harakatini kuzatish imkoni yaratiladi.

53. Biomaterial namunalari ro'yxati va tayinlangan tahlillar ko'rsatilgan ilova hujjatlari LATda shakllantiriladi.

54. Namunalarni qabul qilish va saralash xonasi xodimi namunalarni tayinlangan tahlillar bo'yicha markaziy laboratoriyaning tegishli bo'limlariga belgilangan tartibda taqsimlaydi.

55. Namunalar tahliliy bo'limga kelib tushganda laborant namunalar va ilova hujjatlarining shtrix-kodlarini skanerlaydi, ularning mosligini tekshiradi.

VII. Tahlil natijalarini tasdiqlash va berish tartibi

56. Markaziy laboratoriyada belgilangan turdagi tahlillar o'tkaziladi. Tahlil o'tkazish jarayonida SOMlardan foydalaniladi.

57. Har ish kuni ish boshlashdan avval barcha analizatorlarni normal va patologik sifat nazorati suyuqliklari yordamida ichki sifat nazorati amalga oshiriladi va uning natijalari tizimda 5 yil davomida saqlanadi.

58. Haftada bir marotaba analizatorlar kalibrovkalari amalga oshiriladi va ularning natijalari bir oy davomida tizimda saqlanadi.

59. Barcha nostandart operatsiyalar yoki belgilangan tartiblardan har qanday chetga chiqishlar LATda qayd etiladi.

60. Tahlil o'tkazgan laboratoriya xodimi tomonidan LATda tahlil natijalari to'g'risida hisobot tuziladi va unda quyidagilar bo'lishi talab etiladi:

tibbiyot tashkilotining nomi, aloqa telefon raqami va elektron pochta manzili;

bemorning F.I.Sh. (mavjud bo'lsa), jinsi, tug'ilgan sanasi, zarur hollarda boshqa qo'shimcha ma'lumotlar (tibbiy sug'urta polisi raqami, kasallik tarixi raqami, MedID raqami);

biomaterialni qabul qilish sanasi va vaqti;

klinik laboratoriya tadqiqotlari uchun ishlatiladigan biomaterialning nomi;
namuna turi yoki biomaterial qayerdan olinganligi va uni olish usuli (zarur hollarda);

tadqiqot usuli (zarur hollarda);

to'rt turdagi shkalalar (miqdoriy, nominal, tavsif va tartib) yordamida tegishli o'lchov birliklarida ifodalangan klinik laboratoriya sinovlari natijalari;

tahlil sanasi va vaqti;

tahlilni o'tkazgan tibbiyot xodimining F.I.Sh. va lavozimi;

hisobot sahifalarining umumiy sonidan sahifa raqami;

immunokimyoviy usullar (immunoferment, immunoxemilyuminessent va boshqa) yordamida ijtimoiy ahamiyatga ega infeksiyalarni diagnostika qilish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishda test tizimi (nomi, partiyasi/partiya raqami, yaroqlilik muddati) va asbob-uskunalar (analizatorning nomi) ko'rsatilgan holda in vitro diagnostika uchun ishlatiladigan tibbiy mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

61. Tahlil natijalari tegishli shifokor tomonidan xulosa berilgandan so'ng, LAT orqali laboratoriyaning mudiri yoki mas'ul xodimiga tasdiqlash uchun yuboriladi.

62. Tahlillar yakunlangandan so'ng bo'limlardan olingan ma'lumotlarni taqqoslash, ishonchlilik va haqqoniyligini baholash orqali laboratoriya mudiri yoki mas'ul xodim tomonidan tahlil natijalari to'g'risidagi hisobot tasdiqlanadi.

63. Sitologik tadqiqotlar o'tkazishda tadqiqot natijasi xalqaro tasniflarga va XKTga muvofiq sitologik va gistologik atamalar yordamida tuzilgan sitologik tashxis hisoblanadi.

64. Shubhali va haqiqiy bo'lmagan natijalar aniqlanganda biomaterialga qo'shimcha tahlillar tayinlanishi mumkin. Namunani qayta olish to'g'risidagi yakuniy qaror laboratoriya mudiri yoki mas'ul xodim tomonidan qabul qilinadi.

65. Laboratoriya tahlil natijalarini sharxlashda qiyinchilik yuzaga kelganda shifokorlar konsiliumida ishtirok etish uchun, shu jumladan telemeditsina texnologiyalaridan foydalangan holda, klinik laboratoriya diagnostikasi shifokorlari, laboratoriya genetiklari va tibbiy mikrobiologlar taklif etiladi.

66. Yakuniy xulosadan so'ng tahlil natijalari to'g'risida hisobot LAT orqali bemorga, uning qonuniy vakiliga yoki davolovchi shifokorga yoki yo'naltiruvchi tibbiyot tashkilotiga shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda shifokor siri

to'g'risidagi amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarini inobatga olgan holda avtomatik yetkaziladi.

67. Tahlil natijalari to'g'risidagi hisobotning nusxasi bemorga yoki uning qonuniy vakiliga berilishi mumkin.

68. Axborot tizimida natija shakllantirilgan vaqti, tahlil o'tkazgan va tasdiqlagan mas'ul xodim F.I.Sh. qayd etiladi.

69. Barcha tahlil natijalari, shu jumladan, jihozlardan olingan birlamchi ma'lumotlar, tasvirlar va grafiklar laboratoriya axborot tizimida kamida 5 yil saqlanadi. Saqlash muddati tugagandan so'ng natijalar shaxssizlantirilib ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun belgilangan tartibda ruxsat berilishi mumkin.

70. O'tkazilgan laboratoriya tahlillari soni o'tkazilgan tahlil natijalari to'g'risida hisobotlar asosida LATda qayd etiladi.

VIII. Biomaterialni saqlash va utilizatsiya qilish tartibi

71. Laboratoriya ish jarayonining barcha bosqichlarida biomaterialni tegishli sharoitlarda saqlashni (harorat, namlik, muddatlar) ta'minlash amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tuzilgan SOMlar bilan tartibga solinadi.

72. Biomaterial namunalari tahlilga qadar maxsus ajratilgan sovutgich yoki muzlatgichlarda saqlanadi. Har bir biomaterial namunasi shtrix-kodga ega bo'lishi shart.

73. Biomaterial namunalari tahlilning yakuniy natijasi olingunga qadar maxsus ajratilgan sovutgich yoki muzlatgichlarda saqlab turiladi.

74. Biomaterialni utilizatsiya qilish amaldagi SanQvaNlariga muvofiq xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

75. Biomaterial bilan ishlaganda barcha xodimlar bioxavfsizlik talablariga rioya qilishlari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishlari shart.

76. Biomateriallarni saqlash va ular bilan ishlash joylari belgilangan tartibda SanQvaNga hamda SOMlarga muvofiq dezinfeksiya vositalari bilan muntazam ravishda sanitariya ishlovidan o'tkazib turiladi.

IX. Pulli xizmat va shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi

77. Pulli xizmatlar ro'yxati va narxlari tegishli tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i tomonidan hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

78. Tibbiyot muassasalarida hamda markaziy laboratoriyada to'lovlarni qabul qilish uchun fiskal xotiraga ega bo'lgan kassa apparati va bank terminallari

bilan ta'minlanadi hamda elektron pul ko'chirish yordamida to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

79. Ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning narxlari va markaziy laboratoriyaning ish tartibi haqidagi ma'lumotlar tibbiyot muassasasining ma'lumotlar burchagida joylashtiriladi.

80. Markaziy laboratoriyada pulli asosda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun SanQvaNga muvofiq biologik materiallarni yig'ish uchun maxsus xona ajratiladi.

81. Pulli xizmatlar SanQvaNga rioya etgan holda barcha sharoitlar yaratilgan taqdirda yo'lga qo'yiladi.

82. Bepul va pulli asosda ko'rsatiladigan ayni turdagi laboratoriya xizmatlari va tahlil natijalari sifat jihatidan farq qilmasligi lozim.

83. Pulli asosda amalga oshirilgan tahlil natijalari bemorga yoki ularning qonuniy vakillariga elektron, sms (zarur hollarda qog'oz) shaklda taqdim etilishi yo'lga qo'yiladi.

84. Pulli xizmatlar va shartnomalar bo'yicha tushumlar tibbiyot muassasasining alohida shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kirim qilinadi hamda ularning hisobi alohida yuritiladi.

V. Yakuniy qoidalar

85. Markaziy laboratoriyani qayta tashkil qilish yoki faoliyatini tugatish amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

86. Ushbu Tartib talablari bajarilishi uchun javobgarlik tuman (shahar) sog'liqni saqlash bo'limi mudiriga yuklatiladi.

87. Ushbu Tartibni amaliyotda qo'llashdan kelib chiqadigan nizolar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

88. Ushbu Tartib qoidalarini buzganlik uchun aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Markaziy laboratoriya mudirining LAVOZIM YO'RIQNOMASI

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Markaziy laboratoriya mudiri lavozimiga klinik-dagnostik laboratoriya sohasida besh yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega oliy tibbiy ma'lumotga ega mutaxassis tayinlanadi.

2. Markaziy laboratoriya mudiri amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuman (shahar) sog'liq saqlash bo'limi boshligi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

3. Markaziy laboratoriya mudiri bevosita tuman (shahar) markaziy shifoxona bosh shifokoriga bo'ysunadi.

4. Markaziy laboratoriya mudiri o'z faoliyatini olib borishda O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi me'yoriy hujjatlari, mazkur yo'riqnoma hamda tuman (shahar) markaziy shifoxonasi ichki tartib-qoidalariga amal qiladi.

II-bob. Markaziy laboratoriya mudirining vazifalari

6. Markaziy laboratoriya mudiri quyidagi vazifalarni bajaradi:

markaziy laboratoriya xodimlarining faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshirish;

markaziy laboratoriyada amalga oshirilgan barcha turdagi tahlillar nazoratini olib borish;

markaziy laboratoriyada amalga oshirilgan tahlillar natijalari ma'lumotlarini lat orqali kiritilishi va tibbiyot muassasalariga yuborilishini nazorat qilish;

markaziy laboratoriya xodimlariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hamda boshqa ko'rsatmalarni o'z vaqtida yetkazish;

biomateriallar bilan ishlash yuzasidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardagi qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish;

preanalitik bosqich talablari va biomaterialni qabul qilish qoidalari bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirilishini ta'minlash;

rad etilgan tahlil holatlarining asosiy sabablarini aniqlash va ushbu holatlarni kamaytirishga qaratilgan choralar ko'rish;

markaziy laboratoriyada zarur bo'lgan asbob-uskunalar, tibbiy jihoz va sarflov materiallari ehtiyojini shakllantirish va rahbariyatga taqdim qilish.

markaziy laboratoriya xodimlarining ish rejasini tuzish.

markaziy laboratoriya faoliyatini tashkil etishning ilg'or shakllarini joriy etish.

markaziy laboratoriyada yuritiladigan hisobot va hujjatlarni amaldagi buyruqlar asosida "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida yuritish va taqdim etish.

markaziy laboratoriyada ichki va tashqi sifat nazorati muntazam o'tkazilishini ta'minlash.

III. Markaziy laboratoriya mudirining huquqlari

5. Markaziy laboratoriya mudiri quyidagi huquqlarga ega:

markaziy laboratoriyaga ishga qabul qilinayotgan xodimlar tanlovida ishtirok etish;

yangi usullarni va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritish;

markaziy laboratoriya xodimlarining vazifalarini belgilash;

markaziy laboratoriya xodimlarini rag'batlantirish yoki jazo choralarini ko'rish bo'yicha tuman (shahar) sog'liq saqlash bo'limi boshligiga takliflar kiritish;

o'z malakasini muntazam oshirib borish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan ish haqi bo'yicha imtiyozlar va ijtimoiy muhofazadan foydalanish.

IV-bob. Markaziy laboratoriya bo'limi mudirining javobgarligi

6. Markaziy laboratoriya mudiri quyidagilar:

bemor haqidagi ma'lumotlarni sir saqlanishi;

tibbiy asbob-uskunalaridan samarali foydalanish;

o'tkazilayotgan tahlillar sifati hamda haqqoniyligiga;

"Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida hisob va hisobotlarbi yuritilishini ta'minlash;

markaziy laboratoriyada sanitar-epidemiologik, texnika va yong'in xavfsizligi hamda dezinfeksiya qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

tuman (shahar) markaziy shifoxonasi ichki tartib-qoidalariga rioya etilishini ta'minlash uchun javobgar.

Markaziy laboratoriya shifokor-laborantining LAVOZIM YO'RIQNOMASI

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Markaziy laboratoriya shifokor-laboranti lavozimiga laboratoriya diagnostikasi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan oliy ma'lumotli mutaxassis tayinlanadi.

2. Shifokor-laborant markaziy laboratoriya mudiriga hamda tuman (shahar) markaziy shifoxona bosh shifokoriga bevosita bo'ysunadi va uning boshchiligida ish olib boradi.

3. O'z faoliyatini olib borishda O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi me'yoriy hujjatlari, mazkur yo'riqnoma hamda tuman (shahar) markaziy shifoxonasi ichki tartib-qoidalariga amal qiladi.

II-bob. Shifokor-laborantning majburiyatlari

4. Shifokor-laborantning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

funksional vazifalariga muvofiq laboratoriya tahlillarini o'tkazish;

laboratoriya tahlillarini o'tkazishda asbob-uskunalarni to'g'ri ishlatish, reaktivlardan maqsadli foydalanish, sanitar-epidemiologik hamda mehnat himoyasi tartib-qoidalariga rioya etish;

tahlil natijalarini LATda to'g'ri interpretatsiya qilish;

o'rnatilgan tartib-qoidalariga muvofiq tibbiy va boshqa hujjatlarni o'z vaqtida hamda sifatli "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida rasmiylashtirish;

markaziy laboratoriyada ichki sifat nazoratini amalga oshirishda qatnashish;

tashqi sifat nazorati dasturlarida ishtirok etish;

klirik shifokorlarga laboratoriya diagnostikasi masalalarida maslahatlar berish;

o'rta tibbiyot xodimlarining ishini nazorat va tahlil qilish;

o'rta tibbiyot xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'z mutaxassisligi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

yangi laborator tahlil usullari va uskunalarini ishlash jarayonini o'zlashtirish hamda tatbiq qilishda ishtirok etish.

III-bob. Shifokor-laborantning huquqlari

5. Shifokor-laborant quyidagi huquqlarga ega:

markaziy laboratoriya mudiriga ishni tashkil etish va mehnat sharoitlarini yaxshilash masalalarida takliflar kiritish;

o'z malakasini muntazam oshirib borish;

o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan ish haqi bo'yicha imtiyozlar va ijtimoiy muhofazadan foydalanish.

IV-bob. Shifokor-laborantning javobgarligi

6. Shifokor-laborant quyidagilar:

bemor haqidagi ma'lumotlarni sir saqlash;

markaziy laboratoriya tomonidan bajarilayotgan ishlarning sifati, texnika xavfsizligi va sanitariya-epidemiologiya tartibi va qoidalariga rioya etish;

o'z vazifaviy majburiyatlari doirasida markaziy laboratoriya xonalarining tegishli tartibda saqlanishi, uskunalari va jihozlari butligi hamda reaktivlarining samarali ishlatilishini ta'minlash uchun javobgar.

Markaziy laboratoriya o'rta tibbiyot xodimining lavozim yo'riqnomasi

I. Umumiy qoidalar

1. Markaziy laboratoriya o'rta tibbiyot xodimi (keyingi o'rinlarda – laborant) lavozimiga laboratoriya ishi bo'yicha o'rta yoki oliy tibbiy ma'lumotli mutaxassislar tayinlanadi.

2. Laborant bosh hamshiraga hamda markaziy laboratoriya mudiriga bo'ysunadi.

3. O'z faoliyatini olib borishda O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining amaldagi me'yoriy hujjatlari, mazkur yo'riqnoma hamda tuman (shahar) markaziy shifoxonasi ichki tartib-qoidalariga amal qiladi.

II. Laborantning majburiyatlari

4. Laborantning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

biologik materiallarni qabul qilish va elektron tizimda ro'yxatga olish, tashish, saqlash, ishlov berish;

ish faoliyatini boshlashdan oldin qo'llaniladigan tibbiy asbob-uskunalar, reagentlar, dezinfeksiyalovchi eritmalar hamda ish joyini tayyorlash;

har ish kunida normal va patologik ko'rsatkichli syuqliklar yordamida ichki sifat nazoratini o'tkazish;

har haftada bir marta laborator jihozlar kalibrovkasini o'tkazish;

laboratoriya tahlillarini o'tkazish va natijalarini shifokor laborantga taqdim etish;

ishlatilgan bir marotabalik tibbiy jihozlar, sarflov materiallari va biomaterial namunalarini belgilangan tartibda dezinfeksiya va utilizatsiya qilish;

me'yoriy-texnika hujjatlariga, texnika xavfsizligi va sanitar-epidemiologik tartib-qoidalarga muvofiq laboratoriya uskunalarini saqlash, foydalanish, ularga ishlov berish hamda zararsizlantirish qoidalariga rioya qilish;

hisob hujjatlarini belgilangan tartibda to'g'ri yuritish.

III. Laborantning huquqlari

5. Laborant quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida laboratoriya diagnostika jarayonini yaxshilash masalalarida takliflar kiritish;

o'z malakasini muntazam oshirib borish;

qonunchilikda belgilangan ish haqi bo'yicha imtiyozlar va ijtimoiy muhofazadan foydalanish.

IV. Laborantning javobgarligi

6. Laborant quyidagilar:

o'z vazifasi doirasida bajarayotgan ishlar sifati;

bemor haqidagi ma'lumotlarni sir saqlash;

markaziy laboratoriyada xavfsizlik texnikasi va sanitar-epidemiologik tartib-qoidalariga rioya etish;

markaziy laboratoriya uskunalari va reaktivlarini belgilangan tartibda hamda samarali ishlatish;

tibbiy hujjatlarni o'z vaqtida va to'g'ri yuritish uchun javobgar.

Biomaterial namunalarini kuzatuv varaqasi

NAMUNA

O'ram identifikatori: BAT2025-07-01-001

O'ram shakllantirish sanasi va vaqti: 01.07.2025 10:00

Yuboruvchi tibbiyot muassasasi: Samarqand shahar 1-sonli oilaviy poliklinika

O'ramning shoshilinchligi: ☐ Oddiy ☐ Shoshilinch

Qon uchun konteyner

Konteyner shtrix-kodi: [QR-kod yoki shtrix-kod 1]

Termologger identifikatori: TL-001

Namunalarni yig'ish vaqti oraligi: 07:30 - 10:00

Yetkazib berish maksimal vaqti: 2 soat

Vakuteyner turi	Miqdori	Maxsus shartlar
Qizil qopqoqli	17	Sentrifugalamaslik
Binafsharang qopqoqli	8	-
Sariq qopqoqli	10	Yorug'likka sezgir

Vakuteynerlarning umumiy soni: 35

Jo'natish vaqtidagi harorat: _____ °C

Qabul qilish vaqtidagi harorat: _____ °C

Siydik uchun konteyner

Konteyner shtrix-kodi: [QR-kod yoki shtrix-kod 2]

Namunalarni yig'ish vaqti oralig'i: 07:30 - 10:00

Yetkazib berish maksimal vaqti: 1 soat

Idish turi	Miqdori	Maxsus shartlar
Siydik uchun idish	12	-

Siydik uchun idishlarning umumiy soni: 12

Jo'natish vaqtidagi harorat: _____ °C

Qabul qilish vaqtidagi harorat: _____ °C

Najas uchun konteyner

Konteyner shtrix-kodi: (QR-kod yoki shtrix-kod 3)

Namunalarni yig'ish vaqti oralig'i: 07:30 - 10:00

Yetkazib berish maksimal vaqti: 3 soat

Idish turi	Miqdori	Maxsus shartlar
Najas uchun idish	8	-

Najas uchun idishlarning umumiy soni: 8

Jo'natish vaqtidagi harorat: _____ °C

Qabul qilish vaqtidagi harorat: _____ °C

Biomateriallarning umumiy soni: 55

Qo'shimcha materiallar:

☐ Tahlillarga yo'llanmalar (soni: _____)

☐ Boshqa: _____

Vizual sifat nazorati o'tkazilgan: ☐ Ha ☐ Yo'q

Jo'natishdagi qadoqlash yaxlitligi:

☐ Shikastlanmagan ☐ Shikastlangan (izoh: _____)

Partiyani shakllantirgan mas'ul shaxs:

Xodim kodi: MED001

Imzo: _____

Partiyani qabul qilgan kuryer:

Kuryer kodi: KUR001

Imzo: _____

Partiyani kuryerga topshirish sanasi va vaqti: 01.07.2025 10:05

Markaziy laboratoriya xodimi tomonidan to'ldiriladi:

Partiyani markaziy laboratoriyada qabul qilish sanasi va vaqti: _____

Qabul qilishdagi qadoqlash yaxlitligi:

☐ Shikastlanmagan ☐ Shikastlangan (izoh: _____)

Partiyani qabul qilgan markaziy laboratoriya xodimi:

Xodim kodi: _____ Imzo: _____

Izohlar: _____

*Markaziy laboratoriya faoliyatini
tashkil etish tartibiga
5-ilova*

Biomaterial namunalarini tashish uchun logistika jurnali

Sana				
Kuryer kodi				
Oilaviy poliklinika raqami				
Biomaterial namunalari qabul qilingan vaqt				
Shoshilinchlik darajasi				
Biomaterial turi				
Biomaterial soni				
O' raming shtrix- kodi				
Markaziy laboratoriyaga yetib kelish vaqti				
Yetkazib berishdagi harorat (°C)				
Qabul qilgan xodim kodi				
Izohlar				

Anesteziologiya, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlarida bajariladigan laboratoriya tahlillari ro'yxati

Quyidagi laborator tahlillarni markaziy shifoxonaning Anesteziologiya, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlarida zaruratga ko'ra shoshilinch tarzda amalga oshirish imkoniyati yo'lga qo'yiladi*:

1. Kislota ishqor muvozanati analizatori (KSHS)
2. Bioximik tahlillar: Qand miqdori, Bilirubin umumiy, erkin, mochevina, kreatinin, umumiy oqsil, albumin, ALT, AST, Amilaza, Ishqoriy fosfataza, Gamma glyutomenaza (GGT), Laktat dehidrogenaza (LDG), Kaliy, KFK MV,
3. Immunokimyoviy tahlillar: Troponin I, S reaktiv oqsil, D-dimer, Prokalsitonin, HBsAg (Gepatit B), HCV (gepatit S), OIV
4. Gemostaz: PTI/MNO, ACHTV, Fibrinogen.
5. Klinik tahlillar: umumiy qon tahlili, umumiy peshob tahlili, umumiy najas tahlili, najasda yashirin qon, barcha biologik suyuqliklar (orqa miya, plevral suyuqlik, qorin bo'shlig'i suyuqliklari) tahlili
6. Qon guruhi va rezusini aniqlash.

Ushbu tahlillarni bajarish uchun kerak bo'ladigan analizatorlar:

1. Kislota ishqor muvozanati analizatori (KSHS)
2. Avtomat (yoki yarim avtomat) biokimyoviy analizator ≥ 240 tahlil/soat
3. Avtomat (yoki yarim avtomat) gematologik analizator 5 diff
4. Koagulometr
5. Immunoferment yoki fluoressent analizator
6. Sentrifugalar
7. Mikroskoplar
8. Mutloq avtomatlashgan kompleks peshob analizatori

Izoh:

**Markaziy laboratoriya markaziy shifoxonaning hududida tashkil etilganida va ehtiyojdan kelib chiqib, ro'yxatdagi tahlillar turlari qisqartirilishi mumkin.*

Markaziy laboratoriyada biologik namunalarni tahlilini rad etish mezonlari

Quyidagi hollarda markaziy laboratoriyaning namunalarni qabul qilish va saralash xonasi xodimi yoki boshqa bo'limi laboranti biomaterial namunalarni tahlilini rad etishi mumkin:

biomaterial namunasi markirovkasida xatolik bo'lsa (probirkadagi ma'lumotlar bilan yo'llanmadagi ma'lumotlarning nomutanosibligi, ayrim ma'lumotlarning yetishmasligi va h.k.);

biomaterial namunasi boshqa tahlil uchun mo'ljallangan probirkada yuborilgan bo'lsa;

probirkada shtrix-kodning mavjud emasligi yoki skaner yordamida o'qib bo'lmasligi;

yo'qolgan biomaterial namunalari (LAT tizimida mavjud yo'llanmaga mos biomaterial namunasining yo'qligi);

germetikligi buzilgan (teshilgan, singan, qopqog'i ochilgan, va h.k.) probirkalardagi biomaterial namunalari;

biomaterial namunasi talab etilgan miqdordan kam bo'lganda;

biomaterial namunasini olishdagi xatoliklar tufayli namunadagi o'zgarishlar (masalan, fibrin va h.k.);

biomaterial namunasida gemoliz alomatlari;

biomaterial namunasida xilliyoz alomatlari;

namuna olingan vaqtdan markaziy laboratoriyaga kelgunga qadar 10 soatdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa.